

"Miyras" folklor etnografik xalq ansabli jamoasi "Nurli navolar" xalqaro folklor festivalida ishtirok etmoqda

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(52 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(52 KB\)](#)



Avval xabar qilinganidek, Taxtakopir tumani madaniyat bo'limiga qarashli "Miyras" folklor etnografik xalq ansabli jamoasi o'zining "Yoshlar sayili" kompozitsiyasi bilan Navoiy viloyatining Nurota tumanida o'tayotgan "Nurli navolar" xalqaro folklor festivalida ishtirok etmoqda. Bu haqda tuman madaniyat bo'limi rahbari Serikbay Pirjanov Navoiy viloyati Nurota tumanidan xabar bermoqda.

NUROTA



Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar jamoalari ishtirok etayotgan mazkur festivalda Avg'oniston, Tojikiston, Qozag'iston kabi respublikalardan ham jamoalar ishtirok etmoqda.



30-may kuni qatnashchilar festival doirasida Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yib, Nurota tumanidagi "Chashma" kompleksini ziyorat qilishdi hamda kitobxonlik tadbirlarida ishtirok etishdi.



Nihoyat Nurota shahridagi "Nurota" mehmonxonasi va "Milliy bog'" xiyobonida "Nurli navolar" xalqaro folklor festivali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Marosimda Navoiy viloyati hokimi Q.Tursunov va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri o'rinbosari O.Nazarbekovlar nutq so'zlab, barcha ishtirokchilarga omod va muvaffaqiyatlar tiladi.



Festival g'olib va sovrindorlari bugun e'lon qilinadi. Bu haqda kun davomida xabar berib boramiz.



Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi axborot xizmati

31.05.2018 09:11 da elon qilingan, marta korib chiqildi